

O`zDJTU 3- bosqich talabasi

Maxmudova Mayramxon Baxtiyor qizi

Ilmiy raxbar ispan tili katta o`qituvchisi

Achilova Zulxumor Pulatovna

Bugun hayotni chet tillarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Globalizatsiya jarayoni tezlashgani sari chet tilini o'rganish zamon talabi bo'lib boryapti. Hozirgi kunda til o'rganishga bo'lgan e'tibor judayam kuchayib bormoqda. Har bir sohada yetuk mutaxassis bo'lish uchun albatta biror tilni mukammal bilish zamon talabi bo'lib bormoqda. Til o'rganishda avvalo insonni o'zida ishtiyoq bo'lishi zarur. Til o'rganuvchilarga asosan ,grammatika, lug'at va fonetika kerak bo'ladi. Dunyo tillari mavjudki ular o'zlarining qaysidir grammatik kategoriyasi jihatidan bir-biriga o'xshaydi va qaysidir kategoriyalari bilan farq qiladi. Shu jumladan ingliz tili va ispan tilining ham o'xshash va farqli tomonlari mavjud. Mana shu o'xshash va farqli tomonlarini bilish til o'rganuvchilar uchun, alabatta, o'z samarasini beradi. Bu tillar roman – german tillaridan kelib chiqqanligi sababli ham Ingliz tili va ispan tili ayrim so'zlar juda ham o'xshash:

Misol uchun:

Brad Pitt is the most handsome actor in the world. Brad Pitt is - El actor más guapa en el mundo. She wants to analyze your urine - Ella quiere analizar tu orina. Umumiy tilshunoslik jihatidan olib qaraganda deyarli barcha tillarda bir xil zamonlar mavjud. Shu jumladan ingliz hamda ispan tilida ham zamon kategoriyasi o'xshash. Ikkala tilda ham o'tkan, hozirgi, kelasi zamondan tashqari tugallangan zamonlar mavjud. Bu ham ikkala tilning o'xshash tomonlaridan biridir:

I have worked. – Yo he trabajado.

Biz bilamizki ba'zi tillarda predloglar mavjud ba'zilarida esa uchramaydi. Ingliz tilida ham ispan tilida ham otlardan oldin predlog ishlatiladi. Bu ham

ularning o'xshash tomonidir: en la casa – in the house. Detras de casa – behind the house chet tilida bemalol gapira olish uchun albatta lug'atga katta ahamiyat beriladi. Ingliz tilida deyarli hamma otlar Lotin tilidan kelib chiqqan “-tion” va “-ty” qo'shimchalari bilan tugaydi. Ispan tilida esa “-cion” qo'shimchasi bilan tugaydigan otlar ko'p uchraydi. Shu sababli ham ingliz tilini yoki ispan tilini bilgan til o'rganuvchi o'zining lug'at boyligini oshirishda ko'p qiyinchilikka uchramaydi: *emotion-emocion; education-educacion; exploration-exploracion; constellation-constellacion ; constitution-constitucion*

Ingliz tili va ispan tilining farqli tomonlarini ko'radigan bo'lsak, ba'zilar ularning talaffuzida farq bor deyishsa ba'zilar grammatikasida deyishadi. Chuqurroq o'rganadigan bo'lsak ikkala taraflama ham farq qiladi. Ingliz tili german tillar oilasiga kiradi. Ispan tili esa Roman tillari oilasiga kiradi. Ingliz tilida so'zlarni yozilganidek o'qilsa xato hisoblanadi.

Ingliz tilida so'zlarning o'qilishi yozilishidan farq qiladi. Ispan tilida esa so'zlarning o'qilishi deyarli yozilishi bilan bir xil. Ingliz tilida ko'p fe'llar tuslanmaydi. Noto'g'ri fe'llar masalan “to be” am, is ,are ,was,were, being,been bo'lib tuslanadi. To'g'ri fe'llar esa umumiy 4 ta ko'rinishga ega: work, works, worked, working.

Ispan tilida esa fe'llarning tuslanishi ancha murakkabdir:

1- guruh tuslanish: “**hablar**”-gapirmoq fe'li hablo, hablas, habla, hablamos, hablais, hablan.

2- guruh tuslanishga “**comer**”- ovqatlanmoq fe'li: como, comes, come, comemos, comeis, comen.

3- guruh tuslanishga misol: “**vivir**”- yashamoq fe'li: vivo, vives, vive. vivimos, vivis, viven.

Fe'llar tuslanganda sonda, shaxsda va rodga moslashishi kerak. Ingliz tili va ispan tilining asosiy farqi ham ingliz tilida rod mavjud emasligidadi. Ispan tilida sifatlar odatda otdan keyin keladi va sonda rodga moslashgan holda yoziladi. Ingliz tilida esa sifatlar otlardan oldin keladi va ularda jins mavjud emas. Masalan: Mi gato es blanco. *Mi gata es blanca -My cat is white. My female cat is white. Mis gatos son blancos. Mis gatas son blancas.*

Ingliz tilida yordamchi fe'llar juda ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa so'roq, inkor gaplarni tuzishda va har bitta zamoni shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi: *Do you drink tea? I don't drink tea;*

Did you drink tea? I didn't drink tea.

Ispan tilida esa bunday emas. Gaplarning so'roq shaklini hech qanday yordamchi fe'lsiz ham hosil qilish mumkin: *Tienes un libro? -Senda biror kitob bormi?* Bu holatda ohang muhim ro'l o'ynaydi. Darak gapni ko'tariluvchi intonatsiya bilan talaffuz qilsak hech qanday yordamchi fe'llarsiz ham so'roq gapga aylanadi. Ingliz tilida har bitta gapda albatta ega qatnashishi shart.

Xulosa qilib aytganda ingliz tili va ispan tilini chuqur o'rganish jarayonida shuni ko'rishimiz mumkinki, albatta bu tillarning kelib chiqishi, shakllanishi, grammatikasi, morfologiyasi, leksikologiyasi va fonetikasi jihatdan farqli jihatlari katta bo'lishi mumkin. Lekin yuqorida ko'rib o'tganimizdek o'xshash jihatlari ham mavjud. Tillar orasidagi o'xshash va farqli tomonlarini solishtirib o'rganish jarayonida til o'rganuvchi o'zini ustida ishlab yaxshi natijaga erishadi hamda bu qiyoslangan tillarni murakkab darajada o'rganishga yordam beradi deb o'ylayman.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Г.Я.Туровер “Пособие по устному переводу с испанского языка для институтов и факультетов иностранных языков» Москва ,1980 г
2. Ачилова З. П. Синхрон таржима жараёнида мураккаб морфологик ходисалар ва синтактик конструкцияларнинг ўзига хос хусусиятлари //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – т. 31. – №. 2. – с. 23-28.
3. Ачилова З. П. Таржимашунослик назарияси мутахассислиги фанларига бағишланган замонавий дарсликлар яратишнинг ахамияти //journal of innovations in scientific and educational research. – 2023. – т. 6. – №. 2. – с. 316-318.
- 4.Ачилова З. Словообразовательные и грамматические трудности при переводе испанского текста на русский //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 6 Part 6. – С. 220-224.

5. Ачилова З. П. Применения метода корректирующей компенсации при переводе политических выступлений //journal of innovations in scientific and educational research. – 2023. – т. 6. – №. 2. – с. 319-322.